



Pedagogik kreativlik tushunchasining didaktik tahlili

Abdullayev Sobirjon Sohib o'g'li –

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-mail: asobirjon91@gmail.com

Tel: +998 91 678-77-66

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik kreativlik tushunchasining didaktik tahlili amalga oshirilib, uning mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari hamda ta'lim jarayonidagi funksional ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Pedagogik kreativlikning shaxsiy, kasbiy va metodik jihatlari tahlil qilinib, uni shakllantirish va rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari yoritiladi. Shuningdek, olimlar tomonidan ilgari surilgan ta'rif va konseptual yondashuvlar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirilib, kreativlikning innovatsion ta'lim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, pedagogik kreativlik, didaktik tahlil, ijodiy fikrlash, innovatsion ta'lim, pedagogik faoliyat, kompetensiyaviy yondashuv, kreativ yondashuv, metodik innovatsiya, kasbiy rivojlanish.

Дидактический анализ понятия педагогического творчества

Аннотация. В данной статье осуществляется дидактический анализ понятия педагогической креативности, раскрываются её сущность, структурные компоненты и функциональное значение в образовательном процессе на научно-теоретической основе. Анализируются личностные, профессиональные и методические аспекты педагогической креативности, а также освещаются дидактические условия её формирования и развития. Кроме того, на основе сравнительного анализа обобщаются определения и концептуальные подходы, предложенные учёными, раскрывается взаимосвязь креативности с инновационной образовательной средой, компетентностным подходом и современными педагогическими технологиями.

Ключевые слова: креативность, педагогическая креативность, дидактический анализ, творческое мышление, инновационное образование, педагогическая деятельность, компетентностный подход, креативный подход, методическая инновация, профессиональное развитие.

Didactic analysis of the concept of pedagogical creativity

Annotation. This article provides a didactic analysis of the concept of pedagogical creativity, substantiating its essence, structural components, and functional significance in the educational process from a scientific and theoretical perspective. The personal, professional, and methodological aspects of pedagogical creativity are analyzed, and the didactic conditions for its formation and development are highlighted. Furthermore, based on a comparative analysis, definitions and conceptual approaches proposed by scholars are generalized, and the interconnection between creativity, innovative educational environments, the competency-based approach, and modern pedagogical technologies is revealed.

Keywords: creativity, pedagogical creativity, didactic analysis, creative thinking, innovative education, pedagogical activity, competency-based approach, creative approach, methodological innovation, professional development.

KIRISH

Yangilanayotgan O'zbekistonda bugungi jadallik bilan rivojlanayotgan zamon ta'lim tizimida yangidan yangi g'oyalar, yangi innovatsiyalar, yangicha fikr va kreativ yondashuvni talab etmoqda. Ta'lim sohasidagi keng qo'llanilib kelinayotgan va o'rganishda davom etilayotgan tushunchalardan biri bu "Kreativlik" tushunchasi hisoblanib, uning mohiyatini ochib beruvchi bir qator zamonaviy konsepsiyalar shakllanmoqda. Shu bilan bir qatorda zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. "Kreativ pedagogika" fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shartsharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimida har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxs tomonidan izchil va o'zaro uyg'un tarzda amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat hamda ijodiy mahsulot yaratish jarayonidagi rivojlanish sifatida talqin etish mumkin. Mazkur jarayonning sur'ati va ko'lam biologik hamda ijtimoiy omillar, shaxsning faollik darajasi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoitlar, hayotiy muhim va kasbiy jihatdan belgilovchi omillarga bevosita bog'liqdir. Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi muhim kasbiy talab sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Bronson va Merryman (2010), Ken Robinson (2007), Fisher va Frey (2008), Begetto va Kaufman (2013), Ali (2011), Treffinger (2008) kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, Ken Robinsonning 2007-yilda taqdim etilgan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli chiqishi keng jamoatchilik e'tiborini tortgan bo'lib, millionlab tomoshabinlar tomonidan ko'rilgan. Bu esa ta'lim jarayonida kreativlik masalasining dolzarbligini yaqqol namoyon etadi.

O'qituvchilar orasida pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv asosida tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan adabiyotlar va metodik qo'llanmalar soni ortib bormoqda. Ta'lim departamentlari tomonidan tavsiya etilgan videomateriallar asosida noan'anaviy darslar tashkil etish amaliyoti ham kengaymoqda. Biroq, amalga oshirilayotgan salmoqli ishlar va tashabbuslarga qaramay, ko'plab pedagoglar o'zlarida va

talabalarda kreativlik sifatlarini samarali rivojlantirish metodikasini yetarli darajada egallamaganliklari kuzatiladi.

Kreativlik mohiyatini chuqur anglash uchun avvalo ushbu tushunchaning mazmunini aniqlashtirish zarur. Ken Robinsonning ta'rifiga ko'ra, kreativlik — o'z qiymatiga ega bo'lgan original g'oyalar majmui hisoblanadi. Gardner kreativlikni shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat sifatida izohlab, unda yangilik va amaliy qiymat mavjud bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Emebayl esa kreativlikni muayyan soha bo'yicha puxta bilimga egalik bilan bir qatorda noodatiy, yuqori darajadagi ko'nikmalarga ega bo'lish sifatida talqin etadi. Ilmiy tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi munosabat masalasida turli qarashlar mavjud. Ayrim olimlar ular o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik yo'qligini qayd etsalar, boshqalar kreativlik darajasi intellektual salohiyat bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydilar.

“Kreativlik” tushunchasi madaniy kontekstda ham turlicha talqin etiladi. G'arb madaniyatida kreativlik ko'proq yangilik, noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur erkinligi va hazil-mutoyiba bilan bog'lanadi. Sharqona qarashlarda esa kreativlik ezgulikning qayta tiklanishi, ma'naviy yangilanish jarayoni sifatida talqin etiladi. Qarashlar o'rtasidagi farqlarga qaramay, har ikki madaniyat vakillari ham kreativlikni yuksak qadrlaydilar.

Xorijiy tajribada mutaxassislar, o'z kreativlik darajasini aniqlash maqsadida E.P.Torrens tomonidan ishlab chiqilgan testdan foydalanadilar. Ushbu test shaxsning kreativ tafakkurini faollik, tezkor fikrlash, originallik va mukammallik mezonlari asosida baholash imkonini beradi. Torrensning fikricha, kreativlik quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi: muammo yoki ilmiy farazni ilgari surish, farazni tekshirish va zarur hollarda o'zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish orqali muammoni aniqlashtirish hamda muammoni hal etishda bilim va amaliy harakatlar o'rtasidagi ziddiyatlarga nisbatan sezgirlik ko'rsatish. Kreativlik shaxsning nafaqat ijodiy fikrlash qobiliyatini, balki muammoli vaziyatlarda yangicha yondashuv asosida samarali yechim topish salohiyatini ham ifodalaydi. Bu sifat, ayniqsa, pedagogik faoliyatda ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kreativ fikrlash jamiyatning barcha sohalarida namoyon bo'ladigan muhim intellektual sifattir. Ta'lim jarayonida esa u o'qituvchining kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashuvda, ya'ni pedagogik jarayonni yangicha g'oyalar asosida loyihalash va amalga oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. So'nggi yillarda mazkur jarayon “pedagogik kreativlik” tushunchasi orqali ifodalanib, pedagogning an'anaviy fikrlash doirasidan chiqib, ta'lim va tarbiya samaradorligini ta'minlovchi innovatsion yechimlar yaratishga qodirligini anglatadi.

Pedagogik kreativlik – bu o'qituvchining yangi pedagogik g'oyalarni ilgari surish, mavjud muammolarga nostandart yondashuv asosida yechim topish hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga bo'lgan tayyorgarligini ifodalovchi kasbiy qobiliyatdir. Ushbu sifat o'qituvchining metodik moslashuvchanligi, refleksiv tafakkuri va ijodiy tashabbuskorligida namoyon bo'ladi.

Psixologik tadqiqotlar, xususan, E.P.Torrens tomonidan ishlab chiqilgan test natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ shaxs bir qator muhim belgilarga ega bo'ladi: savollar va ziddiyatli ma'lumotlarga befarq bo'lmaslik, muammolarni aniqlashga intilish, ilgari surilgan taxminlarni tekshirish va ularning yechimini topishga harakat qilish. Bu belgilar pedagogik faoliyatda ham dolzarb bo'lib, o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdan avval ta'lim muhitida qulay psixologik iqlim yaratish zarur. Kreativ muhitda tahsil olayotgan talabalar asta-sekin murakkab va ochiq tipdagi vazifalarni bajarishga qiziq boshlaydi. Shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish ham talabalarda ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi.

Kreativ xarakterdagi o'quv-bilish muhiti talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi (Boykin, Noguera, 2011; Marks, 2000; Jensen, 2013). Bunday muhitda ta'lim olayotgan talabalar quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi: noodatiy va original g'oyalarni ilgari surish, o'zini ifodalashning individual uslubini tanlash, ba'zan g'ayrioddiy savollar berish, ochiq yechimli vazifalardan zavqlanish, dalillarga tayangan holda fikr yuritish hamda muammolarni hal etishda noan'anaviy yondashuvni qo'llash. Pedagogik kreativlikni rivojlantirish nafaqat o'qituvchining kasbiy mahoratini oshiradi, balki talabalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va innovatsion yondashuvni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Demak, zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik kreativlikni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega bo'lib, u ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

XULOSA

“Kreativ pedagogika” fanini o'qitish pedagoglarda ularga xos kreativ sifat va ijodiy pedagogik faoliyat malakalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Pedagoglarda kreativlik sifatлари, ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida amerikalik tadqiqotchi Patti Drepeau tomonidan taklif qilingan yo'llarda foydalanish kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi. Qolaversa, pedagoglarda kreativlik sifatlarini shakllantirish ustuvor tamoyillar asosida ish ko'rish aniq maqsaga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini kafolatlaydi. Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg'ulotlar jarayonida pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko'rsatichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O.Musurmonova Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. O'.Tolipov, M.Usmonboyeva Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
4. A.Xoliqov Pedagogik mahorat va kreativlik asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
5. B.Qodirov Ijodiy tafakkur va uning rivojlanish omillari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
6. Z.Ismoilova Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2021.
7. M.Abdullayeva Pedagogik kompetentlik va uning tarkibiy tuzilmasi. – Toshkent: Universitet, 2022.
8. Савелева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в протессе обучения и отсенки компетенций студентов Учеб.-мет.пособие. – Ижевск: фгбоуво “Удмуртский университет”, 2013, 9 с.
9. Сборник кейсов для вузов по дисциплинам гуманитарного и сотсиально-экономического цикла Учеб.-мет.пособие. – СПб.: Изд-о СанктПетербургского университета управления и экономики, 2015, 3 с.